

JADIDLAR SHOIRLARI MAKTAB XUSUSIDA

Sherzod Xo‘jamberdiyev  
QDPI, mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadidlarning yurtimiz hududlarida maktablar ochganligi, maktablar tashkil qilinishiga olib kelgan ijtimoiy-siyosiy sabablar, pedagog-jadidlarning o‘zlari asos solgan maktablar uchun ta’lif qilgan darsliklari, qo‘llanmalari va ularda “maktab” mavzusining keng ko‘lamda ko‘tarilganligi xususida mulohazalar berilgan. Darsliklar va qo‘llanmalar tarkibiga kirgan “maktab” mavzusidagi she‘rlar e’tiborda tutilib, Avloniy hamda Hamzalarning darslik hamda qo‘llanmalariga kirgan she‘rlar tahlilga tortilgan. Bu she‘rlarning ijtimoiy ahamiyati, maktab tasvirida shoirlar mahorati xususida so‘z borgan

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoiy-siyosiy hayot, Turkiston, ma’naviy qoloqlik, eski maktab, rus-tuzem maktabi, usuli savtiya, o‘qitish tizimi, yangi o‘qitish tizimi, ehtiyojlar, darsliklar, qo‘llanmalar, mavzular, maktab, maorif, pedagog shoirlar, darslar, mahorat.

Jadidlar tomonidan yangi usul maktablari tashkil qilinganidan so‘ng uning boshqaruv va ta’lim bazasini yaratish muhim vazifalardan bo‘lib qolganligi ma’lum. Buning ob’ektiv sabablari ko‘p. Jadid maktablarining paydo bo‘lish omillari, ularning mohiyati hamda maktab va maorifning bugungi takomil ildizlari haqida doktorlik dissertatsiya bitgan U. Dolimov ushbularni qayd etganida to‘la haq edi: “O‘lkaga kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi madaniy hayotning yaxshilanishiga emas, balki o‘ta yaramas, salbiy illatlarning tarqalishiga ham sabab bo‘ldi. Buning ustiga, gubernatorlik mustamlaka xalqlari ma’naviyatini, diniy e’tiqodini buzish uchun aroq, vino va pivo bilan savdo qiladigan maxsus do‘konlar tarmog‘ini kengaytirdi, fohisha ayollarning o‘lkaga oqib kelishiga katta imkoniyatlar yaratdi. Asrlar davomida musulmonlar axloqini nazorat qiluvchi muhtasib, a’lam, rais kabi lavozimlar gubernatorlik tomonidan bekor qilindi. Bularning hammasi mahalliy aholini ma’nan bo‘ysundirishga qaratilgan edi”. [Dolimov;2,273] SHuning uchun ham Hamza, Avloniy kabi fidoyilar millatning aldanganligi, jaholat botqog‘iga botganligini nazarda tutib, bir qator she‘rlar bitdilar va ularda ilm olish farzi aynligi, Qur’oni karimda va hadislarda o‘quv farzligini uqdirishga harakat qildilar. Chunonchi Hamza yozadi:

Darig’ tutmang ilm uchun ketsa mol-u jon,  
O‘quv farzligi ming yo‘l Qur’onda farmon.  
Ma’rifatsiz topulmas ahkomi imon,  
Ilmsizga aytilmas komil musulmon.

[Hamza, 10,10]

Yoki:

Bu Nihon qon yig‘layur millat uchun laylu nahor,  
Yoz o‘tub, qish keldi holo, bizga bo‘lgan yo‘q bahor,  
Sarsari bodi jaholat qilmak istar toru mor,

CHora shul maktab ochaylik, shoyad o‘lsun sabzazor.  
Ey musulmonlar, qachon bir darda darmon istariz?  
Millata shavkat, taraqqiy, sha’nu davron istariz?

[Hamza; 10,16] ]

Yoki:

O‘zga millat hikmat topib uchsalar suyi samo,  
Bizning millat loaqal dardiga darmon istamas.  
Uxlama, o‘zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

[Hamza; 10,13-14]

Avloni y yozadi:

Ilm o‘rgongil Xitoydin bo‘lsa ham der Mustafo  
Amri payg‘ambarni tutmay tutdimiz rohi xato...  
... Din-u millatning bahosi ilm ila , ehson ila,  
Biz esa mag‘rur nafs-u ishrat-u davron ila...  
...Qani avvalgi ilming, funundin e’tiroz etding...

[Avloniy;1,108]

Avloniy to‘g‘ri qayd etgan. Aslida esa, “Mahalliy an’anaviy maktab va madrasalar asrlar davomida o‘z zimmasiga yuklatilgan buyuk vazifani a’lo darajada bajardi: inson aql-zakovati qanday ulug‘ mo‘‘jizalarga qodir ekanligini namoyish qilgan allomalar zumrasini tarbiyalab yetishtirdi. Bunda ham ilm-ma’rifat sarchashmasi bo‘lmish Qur’oni karim amrlariga amal qilish orqaligina shunday buyuklikka erishdilar. Temuriylar saltanati parokandalikka yuz tutishi bilan hokimiyat mutaassib ulamolar qo‘liga o‘tdi, ilm-fan o‘rnini jaholat, diniy oqimlar o‘rtasidagi kurashlar egalladi. Shu vaqtdan boshlab dunyoviy ilm-fan Yevropa qo‘lini sarbaland qildi. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarining dongdor maktab va madrasalari Qur’oni karim ahkomlarini buzib talqin qiluvchi mutaassib ulamolar qo‘liga o‘tdi. Shunday og‘ir vaziyatda ham Shermuhammad Munis, Hakimxon to‘ra, Ahmad Donish, Vojid Ali Mujmaliy kabi hur fikrli ziyolilar jaholat va mutaassiblikka qarshi kurash olib bordilar”. [Dolimov; 2,273]

Yana bir holatni e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Olim ta’kidlab o‘tganidek, general-gubernatorlik tomonidan Turkiston o‘lkasida ochilgan rus-tuzem maktablarining asosiy maqsadi o‘lka xalqlarini ruslashtirishga qaratilgan bo‘lib, o‘z oldiga gubernatorlikka xizmat qiladigan kichik amaldorlar toifasini tarbiyalab yetishtirish vazifasini qo‘ygan edi. tan olish kerakki, bunday qabih niyatidan qat’i nazar, undagi o‘qitish usullari, tartib-intizom, o‘qitiladigan fanlar ko‘lami mahalliy an’anaviy maktablardan ancha ustun edi. Shuning uchun ham jadid pedagoglari undagi ijobiy tomonlarni tanqidiy o‘rgandilar va o‘z faoliyatlariga tatbiq qildilar. Rus-tuzem maktablarining shovinistik mohiyatini

Sattorxon, SHarifxo‘ja qozi, Muhiddinxo‘ja qozi, Ibrat kabi ma‘rifatparvarlar birinchilardan bo‘lib ko‘ra oldilar, millat manfaatlari tomon burib yuborishga harakat qildilar va bunga jadid maktablari tarmog‘ini o‘lka bo‘ylab kengaytirish va takomillashtirish orqali muvaffaq bo‘ldilar. [Dolimov; 2,273]

“Usuli jadid maktablari boniysi Ismoilbek Gasprinskiy” (Behbudiy so‘zi – SH.X.) o‘gitlariga amal qilgan o‘lka ziyolilari, birinchi navbatda Munavvarqori Abdurashidxonov, yangirgan maktablar ochish, ular uchun o‘quv darslik, qo‘llanmalari yaratishga kirishdi va ilg‘or zamondoshlari unga hamnafas bo‘ldilar. Munavvarqori ortidan, Avloniy, Behbudiy, Hamza va yana boshqa jadidlar o‘zlari maktab ochish bilan bir qatorda “Muallimi avval”, “Muallimi soniy”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi”, “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar”, “Turkiy Guliston yoxud axloq” singari darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarini ishlab chiqdilar. SHunisi muhimki, bu darslik va qo‘llanmalardagi she‘riy, nasriy namunalar mualliflarining ijod mahsullari bo‘lib, asosan, ilm, maktab va maorif, kitob, qalam, va hokazo, yoshlarning ilm olishga, o‘quv va uquvga rag‘batini oshirish maqsadini ko‘zda tutgan. Sirtidan qaraganda, kitoblardagi didaktik mazmundagi materiallarning aksariyati nazariy jihatdan primitiv misralar - yo kitobni targ‘ib etish, yo maktabni tashviq qilish, yo o‘quv farzligini uqtirish masalalariga daxldor bo‘lsa-da, jadidlar ulardagi barcha o‘quv materiallarida yangi maktab o‘quvchilarining ilgari bu masalalardan ancha yiroqda ekanliklari, eski usul maktablari anchayin cheklangan masalalarda ta‘lim berganligini hisobga olgan holda, darslik, qo‘llanmalarni tub maqsaddan kelib tartiblashga harakat qilganlarini tushunish mumkin. Shundanmi, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining aksariyatida qaytariqlar, bir-biriga yaqin o‘xshatishlar, takrorlar ko‘p uchraydi. Masalan, Hamzaning “Yengil adabiyot” qo‘llanmasidagi maktab ta‘rifiga 6-13-darslar va ularning dastlabki misralarida maktabning ta‘rifi turli o‘xshatishlar vositasida havola qilinib, tushunilishi oson satrlarga jo qilingan:

Maktab – dinning chirog‘i...

Maktab – millat atosi...

Maktab –millatga yo‘lbosh...

Maktab – har millat joni...

Maktab – millat makoni...

Maktab –millat quyoshi...

Maktab – millat saroyi...

Maktab – millatning bog‘i...

Maktab – dunyo bihishti... va hokazo.

[Hamza; 10, 317-318]

Avloniyda ham shunga yaqin:

Maktabdur oftobi jahon saodating,  
Maktabdur osmoni zamon saodating.  
Maktabdur eng ziyoli puranvor jilvagar,  
Maktabdur oshiyoni hama fayz qudrating.  
...Maktab u joyi dilkash shirin maqomdur,  
Maktab bihisht-u jannat xur tabiating...  
Maktab jahonning bir chamani lolazorkim,  
Maktabki, sarvi sunbulidur qadr-u qimmating,  
...Maktab qilur jaholat-u nodonlig’a iloj.  
... Maktab ko’ngulni g’amdin qilur xalos.  
...Maktab dilingga sochg’uchi ilm-u fununni.  
...Maktab – u chashmaiki, suyi kasari jinon.  
Maktab – xulosa bog’i adab, koni ma’rifat.

[Avloniy;1,121-122]

Hamzaning “O‘qish kitobida”da bir g’azal berilgan. Mutaxassislarning xabariga ko‘ra, mazkur kitob noma’lum sabablarga ko‘ra, o‘z vaqtida chop etilmagan. Ammo shoir bu kitobdan o‘zi ochgan maktablarda keng foydalangan va bu risolalar o‘sha davr pedagogikasi tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. To‘qqiz darsdan iborat bo‘lgan bu kitob “Yengil adabiyot”ning davomi sifatida o‘quv ishlarida xizmat qilishi nazarda tutilgan. Bilmadik, chop qilinmaganiga ko‘ra, ikkala qo‘llanmani ham Hamza Hakimzoda o‘zi ochgan maktablarda foydalanish uchun bir matn sifatida ta’lif qilgandir. Zero Hamza Hakimzoda Toshkent, Qo‘qon, Marg’ilonda o‘z mablag’i hisobiga maktablar ochgan, o‘zi muallimlik qilgan. Bu bizning mulohazamiz. Biroq Hamzaning dolg’ali hayoti , jadidlar uyushmasidan oz bo‘lsa-yiroqlashgani qo‘llanmalarning chop qilinishiga monelik qilgan chiqar.

Qayd etilgan kitobda “maktabdan” radifli kattagina bir g’azal bor. “Maktabdan” so‘zining radifga chiqarilishining o‘ziyoq mazu markaziga olib chiqilgan masalaning mohiyati nimada ekanligini ko‘rsatib beradi. She’r yuqorida parchalari keltirilgan she’rdan anchayin pishiq yozilgan. Unda uhroviylik ham, dunyoviylik ham bir-biriga uyg’unlashib ketgan. She’r kattagina: 13 bayt; vazni hazaji musammani solim. Afoyli: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun; taqte’si V - - - V - - - V - - - V - - - Qofiyalari: takror, anhor, zinhor, bisyor, asror, ashjor, or, ming bor, bedor, darkor, afkor; “zinhor”, “hushyor” qofiyalari ikki martadan kelgan.

G’azalning matla’sidayoq qadimdan maktab hamma ilm-u adab, fazl-u hunarning o‘chog’i, zikr etilganlarga yetishish nishonalari maktab tufayli, har rutbayi oliyga olib boruvchi vosita ham maktab ekanligiga urg’u beriladi:

Erur ilmu adab, fazl-u hunar osor maktabdan,

Yetar har rutbayi oliy esa takror maktabdan.

[Hamza;10, 351]

Keyingi baytda maktabning inson hayotida muhim ahamiyatga molik ekanligini dalillash uchun muqoyasa yo‘li tutiladi. Ya’ni yer yuziga yomg‘ir yog‘ib, uni sabzavor (ko‘kalamzor) qilsa, maktab ilm-u ma‘rifat anhuri bo‘lib, taraqqiy gulshanini obod qiladi. Baytda kelgan “anhor”, “taraqqiy gulshani” singari metaforalar shoirning she‘r shakli va mazmuniga singdirgan badiiy va ta’lim-tarbiyaviy niyatini ro‘yobga chiqarishga imkon bergan:

Hama gulshan uza yomg‘ur yog‘ub, chun sabzavor etsa,  
Taraqqiy gulshani obod o‘lur anhor maktabdan.

[Hamza;10, 351]

Maktab insonda shakllanadigan izzat-u ikrom, sharofat-u saodatning koni hisoblanadi. Maktab insonni ikki jahon saodatiga musharraf qiladi. Agar qaysi bir millatda maktab bo‘lmasa, bu millat beshak-shubha xarob bo‘lishi tayin. SHU sababdan barcha millat maktab haqida so‘zlaydilar, maktab haqida jon kuydiradilar. Zero hamma ilm-u maorifning hazinasining devori maktab bo‘lar ekan, bu millatning ma’naviy va moddiy hazinasining devori maktab sanaladi. Ana shu xazinadan ilm-u hikmat sirlari shakllanadi va sirtga chiqadi. Modomiki, turli yangi asbob-ashyolar chiqib turmoqda ekan, shubhasiz, maktab bir daraxt bo‘lib, bular uning mevalaridir:

Chiqub turmakda har kun yuz tuman asbob-u ashyolar  
Tamoman, asli beshak, mevayi ashjor maktabdan.

[Hamza;10, 351]

Kimki maktabda o‘qisa, axloq shartlarini o‘rganib komil bo‘ladi va hayo, imon, ahli sharm-u nomus, or unda qaror topadi.

Shoir maktabning ta’rifini shu tariqa tavsif etib bo‘lgach, da’vatga o‘tadi. Ya’ni kimki, ana shu aytganlarimizni anglab yetgan bo‘lsa, kimki yaxshi hayot, shon-u shavkatni istar bo‘lsa, maktabga kelib ilm o‘rgansin, maktabdan ana shu maqsudlari ro‘yobga chiqadi. Dunyodagi barcha xalqlar ham xuddi biz kabi maktabga bormay, ilm-u hikmatdan benasib bo‘lib, uxlab yotgan edi. Ular ham biz kabi taraqqiydan ortda qoldilar. Qachonki ular ham bilimsizlik uyqusidan uyg‘onibgina, maktablarga boribgina taraqqiyga erishdilar. Agar bizning orzumiz g‘aflatdan uyg‘onmoq bo‘lar ekan, xalqni almsizlik botqog‘idan chiqarmoq umidida ekanmiz, maktabdan so‘z so‘zlashimiz, uning mohiyati haqida bong urishimiz lozim:. Shundagina:

Taraqqiyga yetarmiz bizlaram begona millatdek,  
Ikki (yu) uch majolis o‘lsa gar afgor maktabdan.

[Hamza;10, 351]

Chuqurroq mushohada qilinsa, Hamza ushbu g‘azalni ko‘zda yoshi bilan yozgan ko‘rinadi. Negaki, shoir yashagan davr millat tanazzulga yuz tutgan, maktab-maorif ishlari benihoya nochor ahvolga tushib qolgan, hayotning hamma jabhasida jaholat hukm surmoqda edi. Ayniqsa yoshlarning aksariyati o‘uv-yozuvdan bexabar, ishsizlik, bekorchilikdan gangib yurgan edilar. Shuning uchun Hamza:

Nihon sizga yolborgusi, o‘g‘lonlarim, zinhor,

Uzing har orzu gulg‘unchasin zinhor maktabdan,

deb o‘tinadi. [Hamza;10, 351] Inson hayotida maktab muhim rol o‘ynashi, inson kamoloti, millat taraqqiysi ham maktab tufayli bo‘lishini qayta-qayta ta’kidlashga majbur bo‘ladi. Bu holat nafaqat Hamzaning, balki boshqa jadidlarning ham tilagida bo‘lganligini yana bir karra eslab qo‘yish zoye ketmaydi.

Maqola poyonida ichida barcha anglab yetadigan, biroq tiliga chiqarishga istihola qiladigan bir holatni ham eslatib o‘tishni lozim topamiz. Jadidlarning maktab borasidagi orzu-umidlari bugunga kelib ziyodasi bilan ro‘yobga chiqdi. Maktablar hozirga qadar dunyo olimlari bilan bemalol bellashishga qodir olimlar uchun bir tramplin vazifasini o‘tadi va ana shu missiyasini bugunda ziyodalik bilan bardavom qilmoqda. Biroq, tan olib aytish kerakki, maktabning millat yuksalishidagi o‘rnini xali-hanuz tushunib yetmagan kishilar oz bo‘lsa-da borki, ular maktablarning yanada rivoj topishiga to‘sqinlik qilib kelayotganlarini o‘zlari sezmayaptilar. Bizningcha, bunday kimsalar, maktabga munosabatlarini jadidlardan ulgu olib, qayta qursalar nur ustiga a‘lan nur bo‘lur edi. Zero maktabga millat taraqqiysining poydevori, ilm-u hikmat, ma’naviyatning oltin o‘chog‘i deb qaralsagina, o‘qituvchilar, o‘quvchilarning ijtimoiy himoyasi bugundan-da balandroq darajada yo‘lga qo‘yilsagina, biz o‘ylagan maqsudlarga yetamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. Икки жилдлик. 1-жилд. Шеърлар, ибратлар. Т.: Маънавият, 2006.
2. Долимов У. Жадид мактаблари: уларда она тили ва адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий ҳамда амалий асослари. // Педагогика фанлари доктори (DS) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2008.
3. Каримов Н. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг XX аср ўзбек адабиёти тараққиётидаги ўрни ва аҳамияти. - Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. – Фарғона, 2019.
4. Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари // Филология фанлари доктори (DS) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2017.
5. Сабирдинов А. Ҳамза шеърлятидаги воқеа талқини.. - Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. – Фарғона, 2019.

6. Сиддиқов М. Баҳолаш меъёрида эврилишлар ва оқибатлар. – Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. – Фарғона, 2019.
7. Ҳамдамов У. Ҳамза ва янги ўзбек адабиёти. - Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти. – Фарғона, 2019.
8. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва бош. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Университет ва педагогика олий ўқув юртлари учун дарслик. - Т. : Маънавият. 2004.
9. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Беш томлик. Биринчи том. Девон. – Т.: Фан, 1988.
10. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Беш томлик. Иккинчи том. Шеърлар, педагогик рисолалар, насрий асарлар. – Т.: Фан, 1988.